

Aholi va hududlarni muhofaza qilish boshqarmasining asosiy vazifalari:

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olishga oid davlat siyosatini ishlab chiqishda ishtirok etish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish, aholini va hududlarni muhofaza qilish, iqtisodiyot ob'ektlarining barqarorligini oshirish bo'yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot dasturlarni ishlab chiqishga va amalga oshirishga oid tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

aholini, FVDT mansabdor shaxslarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sharoitlarida harakat qilishga tayyorlashni tashkil etish;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni profilaktika qilish va oldini olishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri, viloyatlar, shahar va tumanlar hokimliklari faoliyatini muvofiqlashtirish;

aholi va hududlarni muhofaza qilishda vazirlik va idoralar tomonidan amaldagi me'yoriy talablarni bajarilishini nazorat qilish;

FVDT boshqaruv organlarini, barcha toifadagi aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash dasturlarini kelishish va ularni tayyorlashda ishtirok etish;

Fuqaro muhofazasi instituti va hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining Aholini va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish va rahbarlik qilish;

fuqaro muhofazasiga oid me'yoriy-huquqiy xujjatlar asosida boshqa vazifalarni bajarish.

Aholi va hududlarni muhofaza qilish boshqarmasining funksiyalari:

Aholi va hududlarni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha me'yoriy va boshqa xujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda, yuzaga kelish mumkin bo'lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringini olib borishda, fuqaro muhofazasiga oid guruhlariga kiritilgan potensial xavfli ob'ektlarning O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha rayonlashtirishda ishtirok etadi;

zilzila, ko'chki, sel va toshqinlarni hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni profilaktika qilish tizimining rivojlanishini va ish faoliyatini muvofiqlashtiradi;

barcha qatlamdagi aholi va FVDT boshqaruv organlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash o'quv dasturlarini kelishadi;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi rejalarining tegishli bo'limlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

qonun asosida boshqa vazifalarni amalga oshiradi.